

“OMMAVIY TADBIR” TUSHUNCHASI, TURLARI VA O‘ZIGA XOSLIKLARI

Aytbayev Sanjar Sadullayevich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistraturasi tinglovchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif ommaviy tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha qonunchilik, ommaviy tadbir turlari, ommaviy tadbir toifalari, ommaviy tadbirlarda sodir etilgan jinoyatlar statistikasi hamda tadbirlar ishtirokchilarining psixologik holatiga ta‘sir qiluvchi sabab va omillarni keltirib, maqola yakunida ommaviy tadbirlarda salbiy xolatlarning oldini olish yuzasidan takliflarini bildirib o‘tkan.

Kalit so‘zlar: Ommaviy tadbir, xavfsizlik, jinoyatlar, huquqbuzarliklar, bayram.

Аннотация: В данной статье автор привел законодательство по организации массовых мероприятий, виды массовых мероприятий, категории массовых мероприятий, статистику преступлений, совершенных на массовых мероприятиях, а также причины и факторы, влияющие на психологическое состояние участников массовых мероприятий. В заключение статьи высказал свои предложения по предотвращению негативных ситуаций на массовых мероприятиях.

Ключевые слова: Массовое мероприятие, Безопасность, преступления, проступки, праздник.

Ommaviy tadbirlar muhim ijtimoiy hodisa bo‘lib, bugungi kunda ommaviy tadbirlarga ko‘p sonli fuqarolar yig‘iladi. Ta‘kidlash joizki, ommaviy ayniqsa bayram tadbirlar juda hissiyotga boy, qiziqarli va yorqin jarayondirdir. Bundan tashqari ommaviy tadbirlar fuqarolarning diniy, madaniy va hordiq chiqarish masalalariga bo‘lgan ehtiyojini u yoki bu tarzda qondirish deb ham atash mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 38-moddasida “Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar

va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga ega. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridagina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega” deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Ommaviy tadbir atamasini turli hil soha vakillari turlicha qarashlar bilan ifodalaydi. Bu atamaga chet el, xususan Rossiya Federatsiyasining qonunchiligida “Ommaviy tadbir -bu ochiq, tinch, hamma uchun ochiq, yig‘ilish, miting, namoyish, yurish yoki piket shaklida yoki ushbu shakllarning turli kombinatsiyalarida Rossiya federatsiyasi fuqarolari, siyosiy partiyalar, boshqa jamoat birlashmalari va diniy birlashmalar tashabbusi bilan amalga oshiriladigan harakat, shu jumladan transport vositalaridan foydalanish” deb ta‘rif berilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi”gi qarorida quyidagicha ta‘rif berilgan:

“Ommaviy tadbir — 100 va undan ko‘p kishilarning ishtirokida ijtimoiy-siyosiy (anjumanlar, konferensiyalar, syezdlar va boshqalar), madaniy-ommaviy

va ko‘ngilochar-tomosha dasturlari (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar va o‘yinlar, ko‘rik tanlovlar va boshqalar), shuningdek umumxalq, diniy, kasb bayramlarini o‘tkazish maqsadida ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektida tashkil qilinadigan fuqarolarning birgalikda qatnashishlari” deb tarif berilgan.

Mazkur qarorda ommaviy tadbirlarning turlaridan kelib chiqib uchta toifaga ajratilgan bo‘lib, bular:

alohida toifadagi ommaviy tadbir — “Yangi yil”, “Navro‘z bayrami”, “Mustaqillik kuni”, “Xotira va qadrlash kuni”, “Xalqaro bolalarni himoya qilish”, “Ro‘za hayit” (Iyd al-Fitr), “Qurbon hayit” (Iyd al-Adha), “Rojdestvo Xristovo”, “Pasxa” bayramlarini nishonlashga doir tadbirlar, ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlarini o‘tkazish, umumta‘lim maktablarida o‘quv yilining boshlanishi va tugashiga bag‘ishlangan, saylov va referendumlarni o‘tkazish bilan bog‘liq, shuningdek, xalqaro hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlat rahbarlari ishtirokida o‘tkaziladigan tadbirlar hamda futbol bo‘yicha xalqaro miqyosdagi uchrashuvlar;

birinchi toifadagi ommaviy tadbir — Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlari hududida o‘tkaziladigan alohida toifadagi ommaviy tadbir toifalariga kirmaydigan ommaviy tadbir;

ikkinchi toifadagi ommaviy tadbir — alohida va birinchi toifadagi ommaviy tadbirlar toifasiga kirmaydigan ommaviy tadbir;

Bundan tashqari mazkur qarorda “ommaviy tadbirni o‘tkazish obyekti”, “ommaviy tadbir tashkilotchisi”, “ommaviy tadbir dasturi”, “ommaviy tadbirni o‘tkazish uchun ruxsatnoma”, “ommaviy tadbirni o‘tkazish obyektiga tutash hududlar”, “vakolatli organ”, “ommaviy tadbir ishtirokchilari” kabi tushunchalarga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Albatta yuqoridagi sanab o‘tilgan atama va tushunchalar huquqiy nazariy-jihatdan katta ahamiyatga ega. Ammo har qanday ommaviy tadbirlarda eng asosiy maqsad bu fuqarolarning madaniy dam olishiga sharoit yaratish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoya qilinishi, jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash hisoblanadi. Bu maqsadlarga erishish uchun esa nafaqat tadbirlardagi xavfsizlikni ta‘minlash subyektlari balki fuqarolar ham o‘z huquqlari

va majburiyatlarini qonun doirasida bilishi va unga amal qilishi zarur. Shundagina tadbirlarda jinoyatchilik va shu kabi boshqa ko‘ngilsiz salbiy holatlar sodir bo‘lish ehtimoli kamayadi.

Ommaviy tadbirlar paytida jinoyatchilik statistikasi tadbir turiga, uning hajmiga, joylashgan joyiga va boshqa omillarga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, bu yerda ba‘zi umumiy tendentsiyalar mavjud bo‘lib, bularga:

Kichik jinoyatlarning ko‘payishi: ommaviy tadbirlar paytida o‘g‘irlik

va vandalizm kabi kichik jinoyatlarning ko'payishi tez-tez uchraydi. Katta olomon jinoyatchilar uchun vaziyatdan foydalanish imkoniyatini beradi.

Og'ir jinoyatlarning kam bo'lishi: boshqa tomondan, qotillik, zo'rlash

va tajovuz kabi og'ir jinoyatlar ommaviy tadbirlar paytida kamroq sodir bo'ladi.

Bu politsiya va xavfsizlik xizmatining ko'payishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Spirтли ichimliklar va giyohvand moddalarning ta'siri: spirтли ichimliklar

va giyohvand moddalar ommaviy tadbirlar paytida jinoyat sodir etishda rol o'ynashi mumkin. Moddalar ta'sirida bo'lgan ishtirokchilar tajovuzkor xatti-harakatlarga ko'proq moyil bo'ladi.

Ommaviy tadbirlar paytida sodir etilgan jinoyatchilik statistikasiga ko'ra

2012 yilgi London Olimpiadasi davomida 10 500 ta jinoyat, shu jumladan 5000 ta o'g'irlik, 2019 yilgi Glastonberi festivali davomida 230 ta jinoyat, shu jumladan 126 ta o'g'irlik va 32 ta hujum holatlari qayd etilgan, 2017-yilda Sharlotsvillda bo'lib o'tgan Tramp tarafdorlari mitingida 35 ta jinoyat, jumladan, 2 ta halokatli qurol hujumi qayd etilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, bu raqamlar faqat kichik namunadir va ommaviy tadbirlar paytida jinoyatchilik statistikasi sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Biroq, bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, har qanday ommaviy tadbirlarda kichik jinoyatlar xavfining oshishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tganlarimiz individual bitta shaxs yoki guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlardir. Ammo eng xavfli bunday jinoyat va huquqbuzarliklarga qiziquvchi olomonning qo'shilib ketishi katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Odamlarning tinch yig'ilishi, ma'lum omillar ostida, osongina tajovuzkorga aylanishi mumkin. Bunga odatda odamlar orasida mavjud bo'lgan umumiy hissiy kayfiyat tufayli erishiladi. Ko'pgina yevropa olimlari odamlar kayfiyatiga salbiy ta'sir qilishning asosiy sabablari va omillari sifatida o'z qarashlarini bildirgan. Bularning barchasini umumlashtirgan holda quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

Tadbirlarda olomonda salbiy kayfiyatni uyg'otishi mumkin bo'lgan sabablar:

Yomon tashkilotchilik:

- Tadbir boshlanishini uzoq kutish,
- yomon logistika (masalan, kirish yoki chiqishdagi tiqilinchliklar)

Xavfsizlik muammolari:

- Politsiya xodimlari tomonidan o'ta ishonchsiz yoki tahdidli harakatlarining sodir etilishi.

Qoniqarsiz spektakllar yoki tadbirlar:

- Zerikarli yoki sarflangan moddiy mablag'iga arzimaydigan spektakllar.

Texnik muammolar:

- Elektr uzulib qolishi, yoki nosoz ovoz uzatgichlar.

Kutishlarning mos kelmasligi:

- Tadbir reklama yoki ishtirokchilarning taxminlariga mos kelmasligi. Bu ishtirokchilarda aldanganlik hissini paydo qilishi.

Bundan tashqari ommaviy tadbirlarda norozilik kayfiyatini uyg'otuvchi quyidagi omillarni keltirib o'tish mumkin.

Ijtimoiy omillar:

- Ishtirokchilar o'rtasida salbiy muhit yoki keskinlik(asosan futbol o'yinlarida).
- Turli shaxslar yoki guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar.
- Salbiy munosabatni keltirib chiqaradigan ijtimoiy tarmoqlar yoki ommaviy axborot vositalarining ta'siri.

Tashqi omillar:

- Yomon ob-havo
- transport muammolari
- Ishtirokchining kayfiyatiga ta'sir qiladigan boshqa voqealar yoki yangiliklar

Agar ushbu sabab va omillar ta'sirida ommaviy tadbirda salbiy o'zgarishlar bo'lsa, g'azablangan olomon hissiy harakatlar qila boshlaydi. Bunday hissiy harakatlar esa quyidagilarni kelib chiqishiga olib keladi.

- * ommaviy tartibsizlik;
- * bezorilik;
- * Qurolli isyon;
- * vandalizm;
- * Terrorizm va h.k.

Bugungi kunda mavjud bo'lgan psixologik va ijtimoiy muammolar bunday tartibsizliklarning sodir bo'lish xavfini oshiradi. Aynan shuning uchun ham bu masala ilmiy nuqtai nazardan tobora chuqurroq tahlil qilinmoqda. Shuni ham ta'kidlash joizki, bunday muammoga oid hozirgi ilmiy ishlanmalarni o'rgansak, olomonning turli xavfli harakatlarini bostirishga qaratilgan yetarlicha samarali usullar yaratilganligining guvohi bo'lamiz. Shunga qaramay, hozirgi vaqtda huquqni muhofaza qilish organlari va davlat tuzilmalarining jinoyatlarni bartaraf etish va oldini olish uchun zarur bo'lgan qobiliyatini oshirishga qaratilgan maksimal sifat metodologiyasi mavjud emas. Buning ma'lum sabablari bor. Ulardan eng muhimlaridan biri huquqiy va ma'muriy boshqaruv sohasida yuzaga keladigan turli masalalarning zaif ishlab chiqilishidir. Shuningdek, ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish sohasida ko'plab masalalar hal qilinmagan.

Xulosa o'rnida ommaviy tadbirlarda sodir etilgan jinoyatchilik statistikasi, ommaviy tadbirlarni salbiy tomonga o'zgartiradigan sabab va omillardan kelib chiqib quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarur deb hisoblaymiz:

- Tadbir tashkilotchilari tomonidan tadbirlarning yaxshi tashkillashtirilishi, unda texnik muammolar bo'lmasligiga, tadbir belgilangan vaqtda boshlanib, belgilangan reglamentda davom etishiga alohida etibor qaratishga;
- Xavfsizlik xodimlarining qonunda belgilangan huquq va majburiyatlaridan chetga chiqmasligi;

- Tadbirga tashrif buyuruvchilar transport vositalarining turishi va erkin harakatlanishi uchun qulay sharoitlar yaratilganligiga (yo'l transport xodisalarining oldini olish maqsadida);

- Tadbirlarga taqiqlangan buyumlarning olib kirilmasliga;

- Tadbir ishtirokchilarining majburiyatlari tadbir boshlanishidan oldin eslatib o'tilishi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 29 iyuldagi «Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 205-sonli qarori. <http://lex.uz>

3. Федеральный закон от 19 июня 2004 г. N 54-ФЗ "О собраниях, митингах, демонстрациях, шествиях и пикетированиях" (с изменениями и дополнениями)

III. Elektron resurslar

1. <http://lex.uz> (O'zbekiston Respublikasi Qonun ujjatlarima'lumotlari milliy bazasi);

2. <https://cyberleninka.ru/>

3. <http://synergy-journal.ru/>